

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MA'NAVY-AXLOQIY TARBIYANI SAMARALI TASHKIL QILISHNING PEDAGOGIK TA'MINOTI VA UNI MODERNIZATSIYALASH MAZMUNI

Tursunboyeva Nargiza Komiljon qizi – *assistent o'qituvchi*

nargizatorsynbaeva70@gmail.com

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ОБЕСПЕЧЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ ДУХОВНО-МОРАЛЬНОГО ВОСПИТАНИЯ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ И СОДЕРЖАНИЕ ЕГО МОДЕРНИЗАЦИИ

Турсунбоева Наргиза Комиловна – *ассистент преподаватель*

Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза

PEDAGOGICAL SUPPORT FOR THE EFFECTIVE ORGANIZATION OF SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS

AND THE CONTENT OF ITS MODERNIZATION

Tursunboyeva Nargiza Komilovna – *assistant teacher*

Nukus State Pedagogical Institute named after Ajinyoz

Tayanch so'zlar: OTM, tarbiya, ma'naviy-axloqiy tarbiya, tashkil etish, ta'minot, pedagogik ta'minot, modernizatsiyalash, pedagogik ta'minotni modernizatsiyalash.

Rezyume. Maqolada OTMda ma'naviy-axloqiy tarbiyani samarali tashkil qilishning pedagogik ta'minoti o'zaro bog'liq bo'lgan me'yoriy-huquqiy, tarbiyaviy-metodik, moddiy-texnik (jumladan, axborot) hamda malakali kadrlar ta'minoti to'g'risida so'z yuritilgan. Zamonaviy sharoitda ushbu tarkibiy qismlarni mazmunan hamda shaklan yangilash talab etiladi.

Ключевые понятия: ВУЗ, воспитание, духовно-нравственное воспитание, организация, обеспечение, педагогическое обеспечение, модернизация, модернизация педагогического обеспечения.

Резюме. В статье рассматриваются взаимосвязанные нормативно-правовые, педагогико-методологические, материально-технические (включая информационные) и квалифицированно-кадровые аспекты педагогического обеспечения эффективной организации духовно-нравственного воспитания в высших учебных заведениях. В современных условиях эти компоненты нуждаются в обновлении как по содержанию, так и по форме.

Key words: HEI, education, spiritual and moral education, organization, support, pedagogical support, modernization, modernization of pedagogical support.

Summary. This article examines the interrelated regulatory, pedagogical, methodological, logistical (including informational), and personnel aspects of pedagogical support for the effective organization of spiritual and moral education in higher education institutions. In today's context, these components require updating in both content and form.

Kirish. So'nggi chorak asr insoniyat tarixida tub burilishlar sodir qilingan davr sifatida e'tirof etilmoqda. Axborot-kommunikatsion texnologiyalarning jadal rivojlanishi bilan bog'liq holda global axborot muhiti qaror topdi, kishilik jamiyati mavjudligini ta'minlovchi barcha iqtisodiy sohalarda tashkil qilinadigan faoliyat turlari raqamlashtirildi. Global axborot muhitining qaror topishi o'z navbatida ijtimoiy munosabatlarga ham o'z ta'sirini o'tkaza boshladi. Ayni vaqtda shaxslararo muloqot ham raqamli texnologiyalar, gadjetlar vositasida tashkil qilinmoqda. Mazkur jarayon bir qator afzalliklarga ega bo'lish bilan birga bir qator muammolarni ham keltirib chiqarmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Tadqiqot mavzusi bo'yicha amalga oshirilgan nazariy tahlil F.R.Rustamov tomonidan umumiy tarzda globallashuvning afzaliklari sifatida quyidagilar e'tirof qilingani ma'lum bo'ldi: har bir davlatda iqtisodiy o'sish va rivojlanish uchun imkoniyatning yuzaga kelishi; texnologik taraqqiyotning ro'y berishi; global miqyosda axborotlar bilan erkin tanishish va o'zlashtirish imkoniyatining sodir bo'lishi; madaniy aloqalarning kuchayishi; jamiyat hayotining turli sohalari, chunonchi, ishlab chiqarish hamda xizmatlar yo'nalishlarida raqobat muhitining shakllanishi; ekologik xavf oldini olishning global, xalqaro ahamiyat kasb etishi [7:162].

Qayd qilingan afzalliklar bilan birga globallashuv ta'sirida har bir jamiyat qator muammolarga duch keladi. Jumladan: qadim tarix va asriy yondashuvlarga ega milliy madaniyat, qadriyat va urf-odatlarining yo'qolish xavfining

kuchayishi; tarixiy makon va vaqt bo'yicha yo'nalishni belgilashning mumkin bo'lmashligi; ma'naviy-axloqiy ideallarning boy berilishi; shaxsning o'z mavjudligi bilan bog'liq hayot mazmunining yo'qotishi, umidsizlikka tushishi; shaxslararo nizolarning paydo bo'lishi; qat'iy tartib, intizom asosida kechadigan ijtimoiylashuvga putur yetishi" [13:3-4]; "ayrim milliy hududlarda muammolarning keskinlashishi; davlatlar o'rtasida iqtisodiy notenglikning kuchayishi; milliy ishlab chiqarishning izdan chiqishi; ilm-fan sohasidagi vaziyatning yomonlashishi [11].

Darhaqiqat, globallashuv jarayoni nafaqat jamiyat hayotiga o'z ta'sirini o'tkazib qolmay, balki individual ravishda Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali har bir shaxsni ma'naviy-axloqiy jihatdan manipulyatsiya qilish, uning ongiga yot g'oyalar, buzg'unchi qarashlarni singdirishda ham katta imkoniyatga ega. Shu sababli ayni vaqtda global o'zgarishlar bilan bog'liq ravishda o'quv muassasalari, jumladan, OTMda tashkil qilinadigan ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonining samarador mexanizmi, takomillashgan pedagogik ta'minotini yaratishga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda.

Tanlangan muammoning umumiy mohiyatini yetarlicha tushuna olish uchun modernizatsiya, ta'minot va pedagogik ta'minot tushunchalarining nazariy tavsifini ochib berish maqsadga muvofiq sanaladi.

Etimologiyasiga ko'ra fransuzcha atama bo'lgan modernizatsiya (fr. moderne, ingl. modernization) o'zbek tilida zamonaviy, ilg'or, eng yangi ma'nolarini anglatdi.

Nazariy jihatdan atama biror narsani yangilash, unga zamonaviy tus berish, uni zamonaviy talablarga muvofiq o'zgartirish [3] zarurligini ifodalashga xizmat qiladi. Modernizatsiyada mashina, apparat, turli texnologik qurilmalar, muhim kashfiyotlar texnika taraqqiyoti talablariga muvofiq qayta ishlanadi. Nemec faylasufi hamda sotsiologi Yurgen Xabermas (1929 y.)ning fikriga ko'ra ushbu termin dastlab Yevropada V asrda qo'llanilgan [1:573].

Pedagogik, ya'ni, ta'lim va tarbiya jarayonlarini modernizatsiyalash deganda shaxsni o'qitish va har tomonlama tarbiyalash, unda ma'naviy-axloqiy sifatlarni hosil qilishga qaratilgan pedagogik faoliyat mazmunini ijtimoiy ehtiyojlardan kelib chiqqan holda yangilash, zamonaviy ta'sir vositalari asosida takomillashtirish, tashkiliy jihatdan innovatsion shakl, metod va texnologiyalar bilan qurollantirish nazarda tutiladi.

Natijalar. Tadqiqot uchun obyekt sifatida OTMda tashkil qilinadigan ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayoni qabul qilingani bois yaxlit pedagogik faoliyatning mazkur qismi to'g'risida so'z yuritiladi.

Tadqiqotning nazariy tavsifini yoritishda ta'minot atamasi ham tayanch tushunchalardan biri sanaladi. Mazmuniga ko'ra ta'minot tushunchasi quyidagi ma'nolarni anglatishga xizmat qiladi: kerakli narsalarni mahliyo qilish, yetkazib berish; yashash, ishlash uchun zarur narsalarga bo'lgan ehtiyojni qondirish; yashash, ishlash uchun kerakli pul mablag'i, oziq-ovqat, kiyim-kechak kabi narsalar majmui [16:29].

Morfologik nuqtayi nazaridan "ta'minot" tushunchasining asosini "ta'min" atamasi tashkil qiladi. Ushbu atama arab tilidan tarjima qilinganda o'zbekchada "kafolat", "ta'minlash" ma'nolarini anglatib, "biror narsaning amalga oshishi, ro'yobga chiqishi, muhayyo bo'lishi uchun zarur sharoitni yaratish" [16:28] mazmunini anglatadi. Darhaqiqat, "ta'min" (yoki fe'l shaklida "ta'minlamoq", "ta'minlash") tushunchasi ma'lum faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'ladigan narsalarni hozirlash, taxt qilish (masalan, "dars jarayonini zarur adabiyotlar, texnik vositalar hamda zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlash")ni anglatadi.

Ta'minot" tushunchasi esa ko'p holatlarda tegishli soha bilan birga turli shakllarda qo'llaniladi. Yani: harbiy ta'minot (qurolli kuchlar tizimini oziq-ovqat, kiyim-kechak, qurol-yarog' va boshqa barcha zarur anjomlar, shuningdek, ofitserlar tarkibi, shaxsiy tarkib bilan ta'minlash);

Ijtimoiy ta'minot (davlat tomonidan fuqarolarning ijtimoiy kam ta'minlangan qatlamlariga ularning asosiy moddiy ehtiyojlarini qondirish, ularga pensiya, nafaqa va hokazo ko'rinishdagi moddiy va boshqa turdagi ijtimoiy yordam ko'rsatish yo'li bilan ularning mo'tadil hayot kechirishlari uchun zarur sharoitni yaratib berish) [10:14];

Tibbiy ta'minot (aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish, fuqarolar o'rtasida sanitariya-gigiyenik, davolash-proflaktik, qayta tiklash (reabilitatsion) hamda epidemiyaga qarshi tibbiy tadbirlarni amalga oshirish, bu jarayonni dori-darmon vositalar hamda tibbiy jihozlar bilan ta'minlash, ilmiy asoslarini ishlab chiqish);

Huquqiy (yoki me'yoriy-huquqiy ta'minot; tegishli davlat ionunchiligining asoslari: davlat Konstitutsiyasi, Kodekslar, davlat rahbari tomonidan imzolangan qarorlar, farmonlar, farmoyishlar, davlat idoralari rahbarlari tomonidan chiqarilgan buyruqlar, muayyan tashkilot

faoliyati tartibi va mazmunini belgilovchi Ustavlar; u yoki bu faoliyat bo'yicha ma'lumotlilik darajasini aniqlovchi malaka talablari (klassifikatorlar), davlat standartlari, shuningdek, tegishli faoliyat me'yorini belgilovchi hujjatlar: qoidalar, ish tartiblari, Nizomlar, yo'riqnomalar, talablar, tavsianomalar, taqdimnomalar, xulosalar, protokollar, kelishuvlar, shartnomalar, kontrakt-shartnomalar);

Pedagogik ta'minot (jumladan, didaktik ta'minot; "psixologiya, pedagogika, valeologiya, informatika va boshqa fanlar talablarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan o'quv axborotlari mazmuni" [5:14] hamda uni shakllantiruvchi ta'limiy resurslar: ta'lim to'g'risidagi Qonun, ta'lim tizimini tashkil qilish va boshqarishga oid qarorlar, farmonlar, farmoyishlar, vakolatli tashkilotlarning buyruqlari, ta'lim muassasasining faoliyatini belgilovchi Ustav, Nikonsepsiya, davlat ta'lim standartlari, malaka talablari (klassifikator), "o'quv reja (ishchi o'quv rejasi), dastur (ishchi o'quv dasturi), muayyan tarmoq faoliyati mazmuni va tartibini ifodalovchi hujjatlar" [2:4], o'quv adabiyotlari – darsliklar, qo'llanmalar (o'quv va o'quv-metodik qo'llanmalar), metodik tavsianomalar, yo'riqnomalar, metodik ishlanmalar (dars ishlanmalari, loyihalar, taqdimotlar), ish qog'ozlari, o'quv qurollari va boshqalar);

Metodik ta'minot (mualliflik metodikalari, ta'lim yoki tarbiya jarayonini tashkil qilishda samarali bo'lgan tashkiliy shakllar, metodlar, vositalar, texnologiyalar, ko'rsatmali (yoki ko'rgazmali) qurollar, zarur jihozlar, metodik ishlanmalar: dars yoki ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning rejalar, dars yoki ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning loyihalari, texnologik pasportlari, o'quv hamda nazorat topshiriqlari, o'quv-metodik majmualar, o'qituvchilar kitoblari, ish qog'ozlari, baholash mezonlari va hokazolar).

Shaxs yoki uning faoliyatiga nisbatan qo'llanilganda ta'minot tushunchasi tegishli faoliyatni tashkil qilish uchun hozirlangan moddiy hamda ijtimoiy-ma'naviy resurs, vosita va jihozlar, zarur shart-sharoitlarni yaratish, shuningdek, kadrlar yoki ishchi kuchi bilan ta'minlanganlik"ni ifodalaydi.

Ushbu fikrning isbotini tadqiqotchilar tomonidan "pedagogik ta'minot" tushunchasiga berilgan ta'riflardan yanada yaqqol anglash mumkin. Xususan, "pedagogik ta'minot" tushunchasi A.I.Timonin tomonidan "ma'lum tashkiliy-pedagogik sharoitlarda ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni hamda har bir resursning funksional mohiyatini belgilagan holda shaxsning shaxsiy-kasbiy pozitsiyasini shakllantirishga xizmat qiladigan shaxsiy, institutsional, ta'limiy resurslar jamlanmasi [8:87-88]; "ijtimoiy-pedagogik qo'llab-quvvatlash doirasida tarbiya jarayonini amalga oshirish uchun jalb qilingan hamda maqsadga erishish uchun foydalaniladigan resurslar tizimi, shuningdek, uning ishlashi va rivojlanishini boshqarish amaliyoti"; "ijtimoiy tizimning real imkoniyatlarini amalga oshirishga yordam beradigan va uni tartibga solish, faoliyat ko'rsatishi hamda rivojlanishiga qaratilgan maxsus chora-tadbirlar, vositalar va usullar majmuasi" [9:21] sifatida talqin qilinadi.

Ta'lim muassasalarida tarbiya jarayonini tashkil qilish va boshqarish uchun xizmat qiladigan **pedagogik ta'minot** esa quyidagilardan tarkib topadi: yosh avlodni tarbiyalash va ularda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish (rivojlantirish)ga oid davlat siyosati, konsepsiya, yo'l

xaritalari (faoliyat rejaları), dasturlar, loyihalar, hamkorlik shartnomalari, o'quv-metodik resurslar (maxsus adabiyotlar, metodik qo'llanmalar, yo'riqnomalar, metodik ishlanmalar, ko'rgazmalli qurollar, ko'rsatmali materiallar, metodik rahbarlik ko'rsatmalari, tashxis metodlari va vositalari (Individual rivojlanish dasturlari, Individual rivojlanganlik (ma'naviy-axloqiy yetuklik)ni tashxislovchi shkala (yoki indikator), baholash mezonlari), amaliy mashqlar, test topshiriqlari, keyslar, didaktik va amaliy o'yinlar, ish qog'ozlari, tavsiyanomalar, taqdimnomalar, hisobotlar), hamkorlar (ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonining ishtirokchilari, tashkilotchilari, tashabbuskorlari) hamda ularning vazifalari, majburiyatlari yoritilgan hujjatlar).

Barcha ta'lim muassasalarida bo'lgani kabi OTMda ham ma'naviy-axloqiy tarbiyaning yuqorida qayd etilgan elementlardan iborat pedagogik ta'minotini bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan quyidagi asosiy tarkibiy qismlarga ajratish mumkin: me'yoriy-huquqiy, tarbiyaviy-metodik, moddiy-texnik, axborot hamda malakali kadrlar ta'minoti.

Pedagogik ta'minot, shuningdek, ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonining ishtirokchilari o'rtasida qaror topgan aniq maqsadga yo'naltirilgan, yuqori darajada oqilona tashkillashtirilgan hamda kutilganidek samarali bo'lgan hamkorlik [4:19] sifatida ham baholanadi.

Muhokama. Zamonaviy sharoitda OTMda ma'naviy-axloqiy tarbiyani samarali tashkil qilishning pedagogik ta'minotini modernizatsiyalashga nisbatan ijtimoiy ehtiyoj yuzaga kelmoqda. Mazkur ehtiyojning yuzaga kelishini quyidagi sabablar bilan asoslash mumkin: globallashtirish jarayonining chuqurlashuvi; g'oyaviy kurash va buzg'unchi mafkuraviy tahdid (millatchilik, etnik va diniy qarashlar o'rtasidagi ziddiyat, terrorizm, intolerantlik (murosasizlik, toqat qila olmaslik), manipulyatsiya g'oyalari hamda ommaviy madaniyat tahdidi, axloqsizlik, e'tiqodsizlik)ning kuchayishi; marginal (qorishiq) madaniyatning yuzaga kelishi; jamiyatda ro'y bergan ijtimoiy o'zgarishlar; yosh avlod tarbiyasini tashkil qilishga nisbatan ilg'or yondashuvlarni qaror toptirishga bo'lgan ijtimoiy talabning ortishi; yoshlarda zamonaviy shaxs qiyofasini o'zlashtirishga bo'lgan intilishning kuchayishi; oila-ta'lim muassasi-jamiyat o'rtasidagi integratsiyaning susaygani; umumiy globallashtirish fonida milliy ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning tobora unutilayotgani, yoshlarda ularga nisbatan e'tiborsizlik, mensimaslik hissining shakllanayotgani. Mazkur omillar OTMda tashkil qilinayotgan ma'naviy-axloqiy tarbiyaning pedagogik ta'minotini modernizatsiyalashni muhim hamda kechiktirib bo'lmas vazifaga aylantiradi.

OTMda ma'naviy-axloqiy tarbiyaning pedagogik ta'minotini modernizatsiyalash tizimli yondashuvni talab etadi va bu jarayon quyidagicha kechadi: ma'naviy-axloqiy tarbiyaning nazariy-metodologik asoslar respublika taraqqiyotini belgilovchi 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi [14] hamda O'zbekiston – 2030 strategiyasi [15] g'oyalarga tayangan holda zamonaviy qarashlar va yondashuvlar bilan boyitiladi; jamiyatda kechayotgan o'zgarishlar, ijtimoiy ehtiyojlar,

shuningdek, o'quvchilarning xohish-istaklari, intilishlari, motivatsiyalarini inobatga olgan holda ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimida zamonaviy yo'nalishlar (jumladan, yoshlar tadbirkorligini, ularda tahliliy, tanqidiy va kreativ tafakkurni, raqamli madaniyat (ijtimoiy tarmoq odobi)ni, Internet va ijtimoiy tarmoqlardan xavfsiz foydalanish ko'nikma, malakalarini, nikoh va oilaviy munosabatlar axloqini, zamonaviy axborot texnologiyalaridan maqsadli, samarali foydalanish kompetentligini rivojlantirish; ta'lim oluvchilarda ekstremistik, fundamentalistik, terroristik, ommaviy madaniyat g'oyalari, kiberbulling (onlayn tajovuz shaxsni Internet orqali kamsitish, haroratlash, tahqirlash va unga tahdid qilishga qaratilgan harakatlar [6:42]; kibermobbing (Internetda shaxsga matn, xabar yoki izohlar bilan hujum uyushtirish), troling (buzg'unchi izohlar), doksing (qurbon bo'ladigan kishiga oid shaxsiy ma'lumotlar: uy manzili, telefon raqami yoki oilaviy ma'lumotlarni ommaga e'lon qilinishi) [12]ga nisbatan immunitetni oshirish, shuningdek, birga ir jinsli nikohga, badanga tatuiroka chizdirish holati, giyohvandlik moddalarini iste'mol qilishga nisbatan murosasizlik hissin tarbiyalash, talabalar o'rtasida raqamli qaramlik (raqamli demensiya)ning oldini olish va boshqalar) shakllanadi; talabalar ma'naviyatini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik faoliyat doktorinasi yangi mazmuni kasb etib, OTMda tashkil qilinadigan ma'naviy-axloqiy tarbiya mexanizmi innovatsion shakl, samarali metod, ta'sirchan vositalar yordamida takomillashtiriladi; tegishli soha va yo'nalishlarda talabalarning qiziqtiradigan, ularning ma'naviy-axloqiy ehtiyojini qondira oladigan adabiyotlar turkumi yaratiladi, amaliy topshiriqlar tizimi (loyihalar, keyslar, testlar, amaliy mashqlar, rolli va didaktik o'yinlar) shakllantiriladi; integral yondashuv asosida talabalarining ma'naviy-axloqiy yetukligi darajasini aniqlash/baholashga xizmat qiladigan tashxis va nazorat mezonlari ishlab chiqiladi; OTMda tashkil qilinadigan ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid ishlar tegishli yo'nalishlar bo'yicha qayta tizimlashtiriladi; universitet va institutlarning tarbiyaviy ishlar jarayoniga jalb qilingan pedagoglarning talabalar bilan samarali ishlash malakalarini oshirishga doir institutsional resurslar bazasi mustahkamlanadi; OTMning ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayoniga ko'p tarmoqli soha mutaxassisleri hamda ijtimoiy subyektlar jalb qilinib, ular o'rtasida mustahkam kollaboratsiya qaror toptiriladi.

Xulosa. Shunday qilib, zamonaviy global o'zgarishlar sharoitida oliy ta'lim muassasalarida (OTM) ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etishga yangicha yondashuv talab etilmoqda. Bugungi kunda asosiy e'tibor ta'lim samaradorligini oshirish maqsadida pedagogik ta'minotni modernizatsiyalashga qaratilmoqda. Bu jarayon yangi g'oya va qarashlar bilan boyitilgan, takomillashtirilgan mexanizmlarni joriy etishni ko'zda tutadi. OTMda ma'naviy-axloqiy tarbiyaning pedagogik ta'minoti bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan me'yoriy-huquqiy, tarbiyaviy-metodik, moddiy-texnik, axborot hamda malakali kadrlar ta'minoti kabi asosiy tarkibiy qismlardan iborat. Ayni vaqtda ushbu tarkibiy qismlarning har birini ham mazmunan, ham shaklan yangilash, ularni zamonaviy talablarga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar

1. Гавров С.Н. Модернизация: основные определения и характеристики. // Гуманитарное пространство. Humanity space International almanac. 2012. № 3. Том 1. – С. 573.

2. Емельянова С.А. Нормативно-педагогическое обеспечение как условие повышения эффективности образовательного процесса в учебном заведении: дис. ... канд.пед.наук. – Нижний Новгород: 2005.
3. Модернизация. // <https://qomus.info/encyclopedia/cat-m/modernizatsiya-uz>.
4. Набиев В.Ш., Дьяконова О.О. Педагогическое обеспечение образовательной деятельности в ВУЗе. // Высшее образование сегодня, – Москва: 2016. № 9. – С. 19.
5. Ходжаев Б.Х. Педагогик фанларнинг дидактик таъминоти модули бўйича ўқув-услугий мажмуа. – Тошкент: Низомий номидаги ПКҚТМОТМ, 2014. 14-б.
6. Rustamov F.R. Ijtimoiy tarmoqlarning global ta'limga ta'siri sharoitida o'smir-o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy immunitetini shakllantirish mexanizmi: ped.fanl. bo'yicha fals.fanl.dokt. (PhD) ... dis. –Toshkent: 2025.
7. Rustamov F.R. Globallashuv fonidagi global ta'lim xususiyatlari. // Pedagogika ilmiy-nazariy va metodik. – Тошкент: 2025. № 1. 162-b.
8. Тимонин А.И. Концептуальные основы социально-педагогического обеспечения профессионального становления студентов ВУЗа. – Кострома: 2007.
9. Тимонин А.И. Социально-педагогическое обеспечение профессионального становления студентов гуманитарных факультетов университета: дис. ... докт.пед.наук. – Кострома: 2008.
10. Турсунов Ю. Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий таъминот ҳукуки. / Дарслик. – Тошкент: ТДЮИ нашриёти, 2012.
11. Что такое глобализация и как этот процесс охватывает мир. // <https://journal.sovcombank.ru/glossarii/chto-takoe-globalizatsiya-i-kak-etot-protsess-ohvativaet-mir>.
12. Что такое кибербуллинг? // <https://uz.goodinternet.org/ru/разделы/2/безопасный-интернет/что-такое-кибербуллинг>.
13. Шульгина Д.Н. Глобализация и культурная идентичность: дис. канд.филос.наук. – Воронеж: 2010.
14. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февральдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сон Фармони.
15. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрьдаги “Ўзбекистон – 2030” стратегияси тўғрисида”ги ПФ-158-сон Фармони.
16. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Тартибот – Шукр / 5 жилдли. Тўртинчи жилд. Таҳрир хайъати: Э.Бегматов ва бошқ. А.Мадвалиев таҳрири остида. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2008.